



## MEHNAT BOZORINI SHAKLLANTIRISHNING HUDUDIY MANBALARI TAHLILI

PhD, dots. **Jo'rayev Farrux**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,

ORCID: 0009-0000-5657-9734

**Aralov G'ayrat**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,

ORCID: 0000-0002-2872-7792

**Annotatsiya.** Maqolada mehnat bozorini shakllantirish manbalari sifatida aholi soni, hususan, iqtisodiy faol aholi sonining o'sish sur'ati va ulushi, bandlik va ishsizlik darajasi, shahar va qishloq aholisining nisbat o'zgarishi kabi ko'rsatkichlar hududiy jihatdan tadqiq qilingan. Mazkur ko'rsatkichlar tendensiyasida hududiy o'xshashlik va farqli holatlar tahlili o'tkazilgan. Hudud aholisining mamlakat aholisi tarkibidagi ulushi tendensiyasi tahlillariga tayanilgan holda, bu ijtimoiy jarayonni mehnat resurslarini shakllantirish va mehnat bozorini optimallashtirish bilan bog'liq iqtisodiy jarayon uchun muxim omil ekanligi asoslangan. Oxirgi yillarda shahar va qishloq aholisining nisbat o'zgarishi iqtisodiy faol aholi nisbiy ko'rsatkichlarining hududiy tafovutini yuzaga chiqaruvchi omil sifatida baholangan. Mehnat bozorini shakllantirish manbalari hududiy jihatdan bir xil davrlar oralig'ida o'zgarish tendensiyasini hosil qilishi ochib berilgan. Hududlarda ishsizlik darajalarining sakrash nuqtalari iqtisodiy faol aholi sonining o'sish suratidagi kuchli tebranish bilan bog'liqligi tushuntirilgan. Ishsizlik darajalarining ortib borishi iqtisodiy faol aholi sonining o'sishi bilan kollinear tendensiya hosil qilmasligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** mehnat bozori, mehnat resurslari manbalari, shahar va qishloq aholisining nisbat ko'rsatkichi, iqtisodiy faol aholi, bandlik, ishsizlik darajasi, tendensiya, taqqoslama tahlil

## АНАЛИЗ РЕГИОНАЛЬНЫХ ИСТОЧНИКОВ ФОРМИРОВАНИЯ РЫНКА ТРУДА

PhD, доц. **Жураев Фаррух**

Каршинский инженерно-экономический институт,

**Аралов Гайрат**

Каршинский инженерно-экономический институт

**Аннотация.** В статье на региональном уровне исследованы такие показатели, как численность населения, в частности, темпы роста и доля экономически активного населения, уровень занятости и безработицы, изменение соотношения городского и сельского населения, как источники формирования рынка труда. Проведен анализ региональных сходств и различий в динамике этих показателей. На основе анализа тенденции изменения доли населения региона в населении страны исходят из того, что данный социальный процесс является важным фактором экономического процесса, связанного с формированием трудовых ресурсов и оптимизация рынка труда. В последние годы изменение соотношения городского и сельского населения оценивается как фактор, вызывающий региональные различия в относительных показателях экономически активного населения. Выявлено, что источники формирования рынка труда создают тенденцию изменения в одних и тех же временных периодах. Поясняется, что скачки уровня безработицы в регионах связаны с сильными колебаниями картины роста экономически активного населения. Это также основано на том, что темпы роста уровня безработицы не коллинеарны с темпами роста экономически активного населения.

**Ключевые слова:** рынок труда, источники трудовых ресурсов, соотношение городского и сельского населения, экономически активное население, занятость, уровень безработицы, тенденция, сравнительный анализ.

## ANALYSIS OF REGIONAL SOURCES OF FORMATION OF THE LABOR MARKET

PhD, assoc. prof. **Juraev Farrukh**  
Karshi Engineering Economics Institute  
**Aralov G'ayrat**  
Karshi Engineering Economics Institute

**Annotation.** *The article examines at the regional level such indicators as population size, in particular, growth rates and the share of the economically active population, employment and unemployment levels, changes in the ratio of urban and rural populations, as sources of formation of the labor market. An analysis of regional similarities and differences in the dynamics of these indicators has been carried out. Based on the analysis of the trend in the share of the region's population in the country's population, it is assumed that this social process is an important factor in the economic process associated with the formation of labor resources and optimization of the labor market. In recent years, changes in the ratio of urban and rural populations have been assessed as a factor causing regional differences in the relative rates of the economically active population. It was revealed that the sources of formation of the labor market create a trend of change in the same time periods. It is explained that the jump points of unemployment levels in the regions are connected with the strong fluctuations in the growth picture of the economically active population. This is also based on the fact that the growth rate of the unemployment rate is not collinear with the growth rate of the economically active population.*

**Keywords:** labor market, sources of labor resources, ratio of urban and rural population, economically active population, employment, unemployment rate, trend, comparative analysis

**Kirish.**

Dunyo mamlakatlari iqtisodiy salohiyatining eng muxim manbasi avvalo bu inson kapitalidir. Har bir mamalakat iqtisodiyoti rivojlanishning ma'lum bir bosqichlaridan o'tadi. Barcha bosqichlarda, ular g'oyaviy, texnologik va boshqa jihatlarga nisbatan farq qilsada, biroq rivojlanish konturi markazida doimiy ravishda mehnat resurslaridan optimal foydalanishni maqsad qilgan strategik yondoshuv mavjud bo'lgan. Iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish tendensiyasining asosiy ko'rsatkichlaridan biri ham aynan tarmoqda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi hisoblanadi (Valery, Khabarov et al. 2022).

Milliy insiklopediya rasmiy manbalarida mehnat bozori va uning tarkibiy tuzilishiga "ish kuchi oldi-sotdi qilinadigan bozor. Mehnat bozorining ishtirokchilari ishga yollovchilar, ishga yollanuvchilar va ular o'rtasidagi turli vositachilar hisoblanadi" deb tavsiflanadi<sup>11</sup>. Shuningdek, mehnat bozor mavjudligining tabiiy sharoiti ishchi kuchi va unga bo'lgan doimiy talab bilan izohlanadi (Tang, 2022). Hududiy jihatdan mehnat bozorini shakllantiruvchi asosiy manbalardan biri hudud aholisi tarkibidagi iqtisodiy faol aholidir. Umuman olganda manbalarni tizimli tadqiq etishda doimiy aholi soni, aholining shahar va qishloqlar bo'yicha taqsimlanishi, iqtisodiy faol aholi soni va o'sish sur'ati, bandlik darajasi, ishsizlik darajasi, yoshlar kesimida iqtisodiy faol aholi soni kabi ko'rsatkichlar muximlik kasb etadi.

Bugungi kunda mehnat bozorini optimallashtirish, rivojlantirish muammolari bir qancha jihatlarga ko'ra dolzarb hisoblanadi. Hususan, iqtisodiy salohiyatni oshirishda iqtisodiyot tarmoqlarida ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini oshirish, mehnat taqsimotini optimallashtirish, mazkur tarmoqlarni rivojlantirish bandlar sonining ortishiga bog'liqligi, korxonalar faoliyatini optimallashtirishda mehnatni tejash, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiluvchi mehnat bozorini shakllantirish shular jumlasidandir. Hozirda mazkur masalalarning hal etilishida ekonometrik tadqiqotlarga ustuvorlik berilmoqda (Farooq, Nymoen, 2006). Jumladan, ushbu tadqiqotlar jarayonida muayyan hudud bo'yicha mehnat bozorini chuqur ekonometrik tadqiq etish yuqorida keltirilgan mehnat bozorini

<sup>11</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Mehnat\\_bozori](https://uz.wikipedia.org/wiki/Mehnat_bozori)

shakllantirishning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasini taqqoslama, omilli, tashxisli tahlillarini o'tkazish bilan boshlanadi.

Mazkur tahlillar ko'rsatkichlarning rivojlanish tendensiyasidagi o'xshashliklar, tafovutlar, o'zaro va umumiy ta'sirlar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. bu esa mehnat bozorini shakllantirish manbalarini baholash, rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, istiqbol tendensiyalarini ishonchli prognozlash imkoniyatlarini yaratadi. E'tiborli jihat, mehnat bozori resurslarini tashkil etuvchilarni amaliy faoliyat ko'lami bo'yicha hududiy jihatdan aniq ajratib bo'lmaydi. Bu bozorda talab va taklif darajalarini hudud miqyosida baholash imkoniyatini cheklab qo'yadi. Shu sababli, hududlarda bog'lanishlar, o'xshashliklar, takrorlanishlar kuzatilsa, u holda buni talab va taklifning hududiy chegaralanmasligi holatining darajasidan kelib chiqadi deyish mumkin.

Mehnat bozorini shakllantirish manbalari sifatida aholi, hususan iqtisodiy faol aholi sonining, bandlik va ishsizlik darajalari, shuningdek, ularning o'sish sur'atlari kabi ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasining oldingi va bugungi holatini kuzatish vaqt davomiyligida hosil bo'lgan tendensiyalarini tekshirish ko'p jihatdan mehnat bozorini optimallashtirish masalasini shakllantirishda maqsadni to'g'ri qo'yish va vazifalarni to'g'ri belgilashga asos bo'ladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Mehnat bozorini shakllantiruvchi manbalar, ularning turlari, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, ko'rsatkichlari, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda mehnat resurslarining ahamiyati, mehnat bozorida taqsimot jarayonlarini optimallashtirish, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish usullari, inson kapitalini boshqarish va mehnat bozorini optimallashtirish muammolari xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Ular ilmiy asarlarida, ilmiy xulosalarida tadqiqot mavzusi bo'yicha yondoshuvlarini, ilmiy fikr-mulohazalarini bayon etishgan. Jumladan,

Germaniyalik iqtisodchi Svetlana Rujin (2024) mehnat bozorini ijtimoiy institutlari va texnologiyadan kelib chiqqan holda ish hajmini keng va intensiv chegaralar bo'ylab moslashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Chililik olim Manuel Pérez-Trujillo (2024) mintaqaviy mehnat bozori ko'rsatkichlariga ta'sir omillarining keng sinfini shakllantiradi. Ayniqsa uning asarlarida tog'-kon sanoatining mintaqaviy mehnat bozori ko'rsatkichlariga ta'siri keng tadqiq etiladi.

Meyn universiteti olimlari Otterby, Crawley va Gabelar (2024) mehnat bozorini shakllantirishda aholi turmush darajasining ahamiyatini ochib beruvchi ilmiy izlanishlar olib borishgan. Xususan, tadqiqot ishlarida ish haqi, ishchilarning moddiy ta'minotidagi tebranishlar bilan bog'liq mehnat bozorini muvozanatdan chiqarish mumkin bo'lgan mezonlar tadqiq etilgan.

Iqtisodchi olimlar Díaz-S'anchez va Correalar (2024) ilmiy asarlarida Ekvador misolida rivojlanayotgan mamlakatlarning hududiy immigratsiyaning rasmiy mehnat bozorining muxim tarkibiy qismiga aylanish sharoitlarida iqtisodiy rivojlanish masalalari ko'rib chiqilgan.

Daniyalik tadqiqotchilar Daniel Borowczyk-Martins va David Pacinilar (2024) mehnat bozorining ma'lum bir rivojlanish bosqichlaridan o'tish davrlarida burilish bo'g'inlarini xarakterlovchi vaqtli qator modellarini ishlab chiqadi. Bu yondoshuvda mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari alohida ta'sir omillarisiz, dinamik jarayonda kuzatiladi va rivojlanish tavsiflari keltiriladi.

Uorvik universiteti olimlari Stefano Caria va Julien Labonnellarning (2024) ilmiy ishlarida mehnat bozori ko'rsatkichlari va hududning ijtimoiy infratuzilmasi, hususan, qishloqlarning ijtimoiy tuzilmasi o'rtasidagi bog'liqliklar faol tadqiq etilgan.

Sfaks universiteti tadqiqotchilari Marwa va Chokrilar (2024) faol mehnat bozori siyosati va ularni taqsimlashning nobarqaror holati bo'yicha ahamiyatli tahlillar olib borishgan. Jumladan, faol mehnat siyosatining beqarorligiga byudjet mablag'larini taqsimlash bilan bog'liq

omil ta'siri, mintaqaviy kontekstda qanday qilib samarasizlikga olib kelishini dinamik panel regressiya modellari asosida tadqiq etishgan.

Tadqiqotchilar Jajati Keshari Parida va Niharika Bhagavatulalar (2023) yosh qatlami bo'yicha va shahar sharoitida mehnat resurslarini optimallashtirish natijasida turmush farovonligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Jumladan tadqiqotchilarning asarida yosh shaharlik ayollarning mehnat bozoridagi ulushi dinamikasida uy xo'jaliklari daromadining o'zgarish qonuniyatlari ochib berilgan.

Mamlakatimiz tadqiqotchilari Maaz Ahmad (2024), Z.Kuldasheva, N.Ismailova, N.Akromavalarning ilmiy ishlarida Janubiy Osiyoda taklif omillarining inflyatsiyaga ta'siri doirasida mehnat bozori dinamikasi tahlillari o'tkazilgan (Rakhimov & Jo'rayev, 2022).

Yuqorida keltirilgan manbalarda mehnat bozorining shakllanish manbalari, asosiy ko'rsatkichlari, ularning mohiyati tshuntirilgan. Mehnat bozorining raqobat muhiti, tashkil etuivchilari, mehnat bozori strukturasi bo'yicha tasniflar bayon etilgan. Mehnat bozorini boshqarish, ichki va tashqi omillar ta'sirini baholashning yangi shakllari, yondoshuvlari taklif etilgan. Mehnat bozorini iqtisodiy samarador tizimga aylantirish talablari, mezonlari bo'yicha ilmiy xulosalar keltirilgan. Biroq mazkur ilmiy yondoshuvlarda mehnat bozorini optimallashtirishda tendension yondoshuv, manbalarning mehnat bozori rivojini belgilab beruvchi bog'liq va bog'lik bo'lmagan dinamik xususiyatlari yetarlicha tadqiq etilmagan. Shunday bo'lsada, mazkur ilmiy manbalar mehnat bozorini o'rganish, optimallashtirish jarayonlarini nazariy tushuntirish, uslubiy ta'minlash borasida katta ahamiyatga ega.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mehnat bozorini optimallashtirish masalalari ekonometrik modellashtirish apparati yordamida hal etiladi. Bu yerda masalaning juda keng qamrovli ekanligi hisobga olinsa, ko'p sonli tadqiqot usullaridan foydalanish zarurati mavjudligini bilish mumkin<sup>12</sup>. Hususan, ekonometrik modellashtirish natijalarining samaradorligi, ishonchliligi va aniqligi ko'rib chiqilayotgan obyektning maqsadga muvofiq tahlillari to'g'ri olib borilganligiga bevosita bog'liq bo'ladi (Juraev, Mallaev, 2023). Demak, bu yerda tahlil usullarini jarayonga mos to'g'ri tanlash lozim. Ushbu mulohazalar uslubiy yondoshuvlarning farqlanishi va to'g'ri tadbiiq etilishining muximligiga ishora qiladi (Muhammadiyevich, 2023). Tadqiqotimiz davomida mehnat bozorini shakllantirish manbalarini tushuntirishda, tavsiflovchi ko'rsatkichlarni bir tizimga keltirishda deduktiv yondoshuvdan, mehnat bozorini shakllantirish manbalarining hududiy farqlanish xarakterini ochib berishda taqqoslama tahlil usulidan, mehnat bozorini shakllantirish manbalari sifatida qabul qilingan ko'rsatkichlar tendensiyasini baholashda statistik kuzatish usulidan, tendensiyalar o'zgarishida o'zaro o'xshashlik, aksincha tafovut testlarini o'tkazishda tashxisli tahlil usulidan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Mehnat bozorida ishchi kuchini tashkil etuvchilari bu albatta hudud aholisi hisoblanadi va aholi sonining o'zgarish dinamikasi to'g'ridan to'g'ri mehnat resurslari hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra<sup>13</sup>, O'zbeiston Respublikasi doimiy aholisi soni 2023 yilda 36024,9 ming kishiga yetgan bo'lsa, Qashqadaryo viloyatida mazkur yilda bu ko'rsatkich 3482,3 ming kishini, yoki mamlakat aholisining 9,7 foizini tashkil etadi (1-jadval).

Mamlakat aholisi tarkibidagi viloyat aholisining ulushi 2000 yilda 8,85 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda 9,34 foiz, 2020 yilda 9,68 foiz va 2023 yilga kelib esa 9,67 foizga teng bo'lgan (1-rasm). O'sish sur'ati 2023 yilda 2000 yilga nisbatan 0,82 foizga oshgan. Mintaqada aholi ulushining o'zgarishi 2000-2020 yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasini hosil qilgan bo'lsa, 2021 yilda 0,03 foizga kamaygan.

<sup>12</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>


<sup>13</sup> <https://www.qashstat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

## 1-jadval

O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatida aholi sonining o'zgarish dinamikasi<sup>14</sup>

Yillar	Respublika miqyosida, ming kishi			Viloyat miqyosida, ming kishi		
	shahar	qishloq	Jami	shahar	qishloq	Jami
2000	9165,5	15322,2	24487,7	551,3	1615,5	2166,8
2001	9225,3	15587,8	24813,1	559,1	1653,4	2212,5
2002	9286,9	15828,9	25115,8	566	1687,7	2253,7
2003	9340,7	16087,2	25427,9	572,5	1722,2	2294,7
2004	9381,3	16326,1	25707,4	579,7	1756,7	2336,4
2005	9441,9	16579,4	26021,3	589	1789,5	2378,5
2006	9495,1	16817,6	26312,7	597,5	1822,9	2420,4
2007	9584,6	17079,2	26663,8	606,7	1855,5	2462,2
2008	9698,2	17374	27072,2	616,5	1892,9	2509,4
2009	14236	13297,4	27533,4	1116,8	1446,8	2563,6
2010	14425,9	13575,5	28001,4	1135,7	1480,4	2616,1
2011	14897,4	14226	29123,4	1181,2	1541,7	2722,9
2012	15143,2	14412,2	29555,4	1203,2	1574,6	2777,8
2013	15370,1	14623,4	29993,5	1225,3	1606	2831,3
2014	15555,2	14937,6	30492,8	1250,8	1644,5	2895,3
2015	15748	15274,5	31022,5	1274,5	1684,4	2958,9
2016	15963,9	15611,4	31575,3	1300,7	1724,9	3025,6
2017	16250,8	15869,7	32120,5	1326,3	1762,5	3088,8
2018	16532,7	16124	32656,7	1357,5	1790,9	3148,4
2019	16806,7	16448,8	33255,5	1383,6	1829,5	3213,1
2020	17144,1	16761,1	33905,2	1410,4	1870	3280,4
2021	17510,4	17048,5	34558,9	1432,8	1902,6	3335,4
2022	17935,8	17335,5	35271,3	1460	1948,3	3408,3
2023	18370,9	17654,0	36024,9	1491,6	1990,7	3482,3

Biroq, 2021-2023 yillar davomida yana o'shish kuzatilgan. Umumiy holda mintaqada aholi sonining mamlakat aholisi tarkibidagi ulushi nisbatan barqaror o'suvchan dinamikasiga ega bo'lgan.




1-rasm. Qashqadaryo viloyati aholisining mamlakat aholisi tarkibidagi ulushi, foizda<sup>15</sup>

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy web-sayti ma'lumotlari // <https://stat.uz/uz/>


<sup>15</sup> mualliflar ishlanmasi.



Mintaqadagi mazkur tendensiyani shakllanishida aholining shahar va qishloqlardagi taqsimoti birdek xissaga ega emas. Hususan, 2000-2023 yillar davomida aholining shahar va qishloqlardagi taqsimotini ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr – bu 2000-2008 yillar. Bu davrda shahar aholisining qishloq aholisiga nisbati 0,34 nisbatdan 0,33 nisbatga tushib borgan. Shaharda yashovchi aholi jami aholining o'rtacha 24,5 foizini tashkil etgan. Ikkinchi davr – bu 2009 yildan boshlab keyingi davrlar. Bu davrda shahar aholisining qishloq aholisiga nisbati 0,77 nisbatdan 0,75 nisbatga tushib borgan. Shaharda yashovchi aholi jami aholining o'rtacha 75,8 foizini tashkil etgan (2a-rasm).



2a-rasm. Shahar va qishloq aholisining nisbati



2b-rasm. Aholining o'shish sur'ati, foizda<sup>16</sup>


Respublikada ham ayni o'xshash tendensiya kuzatilgan. 2000-2008 yillarda mamalakat miqyosida shahar aholisining qishloq aholisiga nisbati 0,6 nisbatdan 0,56 nisbatga tushib borgan. Shaharda yashovchi aholi jami aholining o'rtacha 36,6 foizini tashkil etgan. 2009 yildan boshlab shahar aholisining qishloq aholisiga nisbati 1,07 nisbatdan 1,04 nisbatga tushib borgan. Mintaqada ham Respublikada ham 2009 yilda shahar aholisining ulushi keskin ortgan. Shuningdek, Respublikaga nisbatan Qashqadaryo viloyatida shahar aholisining qishloq aholisiga nisbati har doim muayyan bir davr uchun quyi ko'rsatkichga ega bo'lgan (2a-rasm).

Respublika va mintaqada aholining o'shish sur'ati 2000-2023 yillar davomida o'xshash, biroz tebranma tendensiyaga ega (2b-rasm). Eng yuqori o'shish sur'ati Respublikada ham mintaqada ham 2011 yilda kuzatilgan, 4 foizga teng. So'ngi 24 yillikda Respublikada aholi sonining ortishi o'rtacha 1,69 foizni, mintaqada esa 2,08 foizni tashkil etadi. Mintaqada nisbiy ustunlik kuzatiladi. Faqat 2021 yilda o'shish sur'ati mintaqada pasaygan. Bu yilda Respublikada mazkur ko'rsatkich 1,93 foizni, mintaqada 1,68 foizni tashkil etgan.

Mintaqada mehnat bozorining shakllanishida aholi sonining o'zgarish dinamikasi katta ahamiyatga ega. Biroq, aholi sonining ortishiga mos ravishda iqtisodiy faol aholi soni ham ortib boradi deb xulosa qilish mumkinmi? Umuman olganda hududiy jihatdan bu nisbat saqlalanadimi?. Bu holatga aniqlik kiritish maqsadida statistika ma'lumotlariga murojaat qilamiz. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida va Qashqadaryo viloyatida 2000-2023 yillar davomida shakllangan iqtisodiy faol aholi sonining jami aholi soni tarkibidagi ulushi mos ravishda 3 ta davrga ajraladi. Jumladan, birinchi davr – yuqori o'shish davri (2000-2010 yillar). Bu davrda mazkur ulush Respublikada 36,83 foizdan 43,88 foizga (farq 7,05 foiz), mintaqada 33,55 foizdan 39,41 foizga (farq 5,86 foiz) oshib borgan (3-rasm).

Ikkinchi davr – qayta o'shish davri (2011-2018 yillar). Bu davrda mazkur ulush dastlab pasayib qayta o'shish tendensiyasiga erishgan. Respublikada 43,06 foizdan 44,88 foizga (farq 1,82 foiz), mintaqada 38,93 foizdan 42,98 foizga (farq 4,05 foiz) oshib borgan. Uchunchi davr – pasayish davri (2019-2022 yillar). Bu davr mamlakat va mintaqada iqtisodiy faol aholi ulushining pasayishi bilan keladi.


<sup>16</sup> mualliflar ishlanmasi.




3-rasm. O‘zbekiston respublikasi va Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faol aholi ulushining o‘zgarish dinamikasi, foizda<sup>17</sup>

Demak, har ikki holatda ham tendensiya monoton xarakteriga ko‘ra o‘zgaruvchan, hamda nisbiy o‘xshash. Yuqoridagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, aholi sonining o‘zgarish darajasi bilan iqtisodiy faol aholi sonining o‘zgarish darajasi bir-biridan farq qiladi. Hududiy jihatdan bu ikki ko‘rsatkich tendensiya chizig‘i nisbiy o‘xshashlik kasb etadi, ammo darajalarda farqlanadi.

Keyingi o‘rinlarda iqtisodiy faol aholi sonining o‘zgarishi bilan ishsizlik darajasining o‘zgarishi o‘rtasidagi tendension o‘xshashlik mavjudligi, yoki aksincha ekanligini e‘tibor qaratamiz. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra [25], so‘ngi 24 yillikda ishsizlik darajasi Respublika va viloyatda mos davrlar bo‘yicha 2 ga ajraladi. Birinchi davr (2000-2006 yillar) – ishsizlikning quyi darajasi. Bu davrda Respublikada ishsizlik darajasi o‘rtacha 0,34 foizni tashkil etgani holda 0,39 foizdan 0,24 foizgacha o‘zgarib turgan. Viloyatda esa o‘rtacha 0,27 foizni tashkil etgani holda 0,26 foizdan 0,33 foizgacha o‘zgarib turgan (4a-rasm). 2007 yilda ishsizlik darajasining keskin ortishi keyingi boshqa 2-davrni (2017 yildan hozirgacha) boshlab beradi. Bu davrda ishsizlik darajasi Respublikada o‘rtacha 6,48 foizni tashkil etib, eng yuqori ko‘rsatkich 2021 yilda kuzatiladi – 9,62 foiz. Qashqadaryo viloyatida esa o‘rtacha 6,79 foizni tashkil etib, eng yuqori ko‘rsatkich 2021 yilda kuzatiladi – 10,23 foiz (4b-rasm).



4a-rasm. 1-davr: ishsizlikning quyi darajasi




4b-rasm. 2-davr: ishsizlikning yuqori darajasi<sup>18</sup>


<sup>17</sup> mualliflar ishlanmasi.

<sup>18</sup> mualliflar ishlanmasi.

Agar yuqoridagi tahlil natijalariga tayanilsa hududning iqtisodiy faol aholi sonining o'zgarishi va ishsizlik darajalari o'rtasidagi tendension tafovut kuzatiladi. Asosiy farqlardan biri ishsizlik darajalari o'zgarishida sakrash nuqtasi mavjud bo'lib, bu iqtisodiy faol aholi sonining o'zgarishida kuzatilmaydi. Biroq ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholi soni bilan bandlar sonining farqini bildirib, ular o'rtasidagi mazkur farqning yuzaga kelishida noaniqlik bor. Mazkur noaniqlikdan chiqish maqsadida mintaqada iqtisodiy faol aholi sonining o'sish sur'ati hamda ishsizlik darajasi tendensiyasi o'rtasida taqqoslash duagrammasini quramiz. Unga ko'ra, iqtisodiy faol aholi sonining o'sish sur'ati notekis tendensiya hosil qiladi. Jumladan, 2007 yilda o'sish 8,5 foizga teng bo'lib, bu o'rtacha ko'rsatkichdan 5,8 foizga ortiqni tashkil etadi (5a-rasm). Aynan mana shu davrda ishsizlik darajasi sakrash nuqtasiga ega. Shuning bilan birga, ishsizlik darajasi 2018 yildan boshlab shiddat bilan o'sgan bo'lsa (5b-rasm), bu davrda mintaqada iqtisodiy faol aholi sonining o'sish surati pastlagan.



5a-rasm. Iqtisodiy faol aholi sonining o'sish sur'ati, foizda



5b-rasm. Ishsizlikning darajasining o'zgarish dinamikasi, foizda<sup>19</sup>

Demak, mintaqada ishsizlik darajalarining ortishi dinamikasida iqtisodiy faol aholi sonining o'sish tendensiyasi kollinearlik kasb etmaydi, biroq ishsizlik darajalarining sakrash nuqtasi aynan iqtisodiy faol aholi sonining o'sish suratidagi kulminatsion nuqta bilan bog'liq bo'lib chiqmoqda.

### Xulosa va takliflar.

Mehnat bozorini shakllantirishning hududiy manbalari tahlili bo'yicha tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Jumladan,

Qashqadaryo viloyati aholisining mamlakat aholisi tarkibidagi ulushi o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, bu ijtimoiy jarayonni mehnat resurslarini shakllantirish va mehnat bozorini optimallashtirish bilan bog'liq iqtisodiy jarayon uchun muxim omil sifatida baholash mumkin;

mamlakatimizda va hususan, Qashqadaryo viloyatida shahar va qishloq aholisining nisbati bilan aholining o'shish sur'ati o'rtasida o'xshash tendensiya mavjud. So'ngi 15 yillikda aholi sonining ortishi katta ustunlik bilan shahar aholisi sonining ortishi hisobiga ta'minlangan;

2000-2023 yillar davomida mamlakatimiz va Qashqadaryo viloyati aholisining shahar va qishloqlardagi taqsimotini, ulushlar o'zgarishi bo'yicha ikkita mos davrlarga ajratish mumkin;

O'zbekiston Respublikasida va jumladan Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajalarining sakrash nuqtasi iqtisodiy faol aholi sonining o'sish suratidagi kuchli tebranish bilan birga kuzatilsada, ishsizlik darajalarining ortib borishi iqtisodiy faol aholi sonining o'sishi bilan kollinear tendensiya hosil qilmaydi;

<sup>19</sup> mualliflar ishlanmasi.



O'zbekiston respublikasi va Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faol aholi ulushining oxirgi 5 yillikdagi o'zgarish dinamikasi istiqbolda mehnat resurslari bilan bogliq murakkablikni, jiddiy tarkibiy o'zgarishlarni keltirib chiqarishiga ishora qilmoqda.

Mehnat bozorini shakllantirishning hududiy manbalari tahlili bo'yicha tadqiqotlar natijasida olingan xulosalardan quyidagi takliflarni o'rinli deb hisoblaymiz: Jumladan, mintaqada maehnat resurslari manbalarining shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etish asosida, iqtisodiyot tarmoqlaridagi ishchi kuchi taqsimotini optimallashtirish modellarini ishlab chiqish tavsiya etiladi;

mintaqada mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi ichki va tashqi ustuvor omillarini aniqlash, baholash usullarini takomillashtirish, omilli nazorat mexanizmlarini faollashtirish zarur;

Qashqadaryo viloyatida mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha qisqa, o'rta va uzoq muddatli ishonchli prognoz parametrlarini ko'p omilli ekonometrik modellar asosida ishlab chiqish zarur.

### **Adabiyotlar / Лумепамыпа/ Reference:**

Borowczyk-Martins D. et al. (2024) Measuring labor market transitions with time series of cross sections. *Economics Letters* Available online 21 March, 111650 / <https://doi.org/10.1016/j.econlet.2024.111650>

Dawn Otterby et al. (2024). Effects of the minimum wage on US county labor markets. *Regional Science Policy & Practice*. <https://doi.org/10.1016/j.rspp.2024.100008i>

Díaz-Sánchez J.P., Correa, H. (2024) Immigration and formal labor market participation in Ecuador: Empirical insights from a developing nation. *Research in Globalization* Volume 8, June, 100198 / <https://doi.org/10.1016/j.resglo.2024.100198>

Do'stmirzayevich, J. R. F. (2023). A MODEL APPROACH TO LONG-TERM FORECASTING OF ELECTRICITY SUPPLY. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(10), 41-45.

Do'stmirzayevich, J. R. F., & Sobirovich, E. J. (2023). Problems of Management of Technological Systems Under Uncertainty: Models and Algorithms. *Global Scientific Review*, 19, 39-48.

Farooq Q., Nymoen R. (2006) Econometric modelling of slack and tight labour markets. *Economic Modelling*. Vol 23, Iss 4, P. -579-596 / [doi.org/10.1016/j.econmod.2006.03.001](https://doi.org/10.1016/j.econmod.2006.03.001)

Jo'rayev, F. (2023). AGROKLASTER TIZIMINI OPTIMALLASHTIRISH USULLARI: NOANIQLIKNI ALGORITM VA MODEL YORDAMIDA MINIMALLASHTIRISH. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(6), 306-314.

Jo'rayev, F. D., Ochilov, M. A., Rakhimov, A. M., & Doliyev, S. Q. (2023). Algorithms for improving models of optimal control for multi-parametric technological processes based on artificial intelligence. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 460, p. 04013). EDP Sciences.

JO'RAYEV, F.D. Econometric modeling of the development and management of agricultural production based on cluster analysis (on the example of the 584 Kashkadarya region). *Экономика*, 8, 584-590.

Juraev, A. K., Jurayev, F. D., Eshkobilov, S. B., Ibragimov, B. S., & Norboev, O. N. (2023). Nonlinear control object identification problems: Methods and approaches. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 392, p. 02043). EDP Sciences.

Juraev, F. D., Mallaev, A. R., Aralov, G. M., Ibragimov, B. S., & Ibragimov, I. (2023). Algorithms for improving the process of modeling complex systems based on big data: On the example of regional agricultural production. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 392, p. 01050). EDP Sciences.

Khalismatov, I., Zakirov, R., Shomurodov, S., Isanova, R., Joraev, F., & Ergashev, Y. (2024). Correlation analysis of geological factors with the coefficient of gas transfer of organizations. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 497, p. 01018). EDP Sciences.

Maaz Ahmad et al. (2024) Effect of the Supply-Side factors on inflation in South Asia: An analysis of oil price, technology, and labor market dynamics. *Research in Globalization* Volume 8,

100210 / <https://doi.org/10.1016/j.resglo.2024.100210>

Manuel Pérez-Trujillo. (2024) *The impact of the mining industry, and its recent functional and spatial fragmentation, on regional labor market performance: The case of Antofagasta. The Extractive Industries and Society* Volume 17, 101431 / <https://doi.org/10.1016/j.exis.2024.101431>

Marwa S., Chokri, A. (2024) *Active Labor Market Policies and instability of their allocations: A changing relationship in the case of regions of Tunisia. Regional Science Policy & Practice.* 100026 / <https://doi.org/10.1016/j.rspp.2024.100026>

Maxmatqulov, G. O. (2022). *A COMPLEX SYSTEMIC ISSUE OF THE DEVELOPMENT OF THE NETWORK OF TRADE SERVICES. Development and innovations in science*, 1(16), 10-13.

Maxmatqulov, G. O. X. (2023). *SAVDO XIZMATLARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USLUBIY YONDOSHUVLARI. Innovative Development in Educational Activities*, 2(9), 378-386.

Muhammadiyevich, A. G. A. (2023). *ANALYSIS OF FUNCTIONS OF BELONGING AND ASSESSMENT OF THE STATE OF THE CONTROL OBJECT. World Economics and Finance Bulletin*, 23, 85-90.

Muhammadiyevich, R. A. (2021). *RESIDENCE AND CATERING SERVICES TO THE POPULATION THE IMPORTANCE OF ECONOMETRIC MODELING IN REGULATORY ASSESSMENT OF CONSUMER REQUIREMENTS TO IMPROVE DISPLAY QUALITY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1043-1048.

Mukhitdinov, K. S., & Juraev, F. D. *Methods of Macroeconomic Modeling. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD)*, e-ISSN, 2456-6470.

Parida J.K. et al. (2023) *The labour market dilemma of young urban women in India: An outcome of family welfare optimization. World Development Perspectives Vol 32*, 100540 / <https://doi.org/10.1016/j.wdp.2023.100540>

Rakhimov, A. N., & Jo'rayev, F. D. (2022). *A systematic approach to the methodology of agricultural development and the strategy of econometric modeling. Res Militaris*, 12(4), 2164-2174.

Rujin S. (2024) *Labor market institutions and technology-induced labor adjustment along the extensive and intensive margins. Journal of Macroeconomics* Volume 79, 103571 // <https://doi.org/10.1016/j.jmacro.2023.103571>

Stefano Caria A. et al. (2024) *Village social structure and labor market performance: Evidence from the Philippines. Journal of Economic Behavior and Organization.* -219 p. 371-380 / <https://doi.org/10.1016/j.jebo.2024.01.025>

Tang L. (2022) *The dynamic demand for capital and labor: Evidence from Chinese industrial firms. Economic Modelling.* 107, / <https://doi.org/10.1016/j.econmod.2021.105731>

Valery I. Khabarov et al. (2022) *Efficiency of Labor Resources use and Issues of Transport Supply and Demand Development in Large Cities and Agglomerations. Transportation Research Procedia.* Volume 61, Pages 308-313. / <https://doi.org/10.1016/j.trpro.2022.01.051>

Жураев, Ф. (2021). *Перспективные проблемы развития производство сельскохозяйственной продукции и их эконометрическое моделирование. Экономика И Образование*, (4), 377-385.

Жўраев, Ф. Д., & Аралов, Ф. М. (2023). *ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИ СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ. RESEARCH AND EDUCATION*, 2(4), 31-43.